

**KONSTITUTSIYA – YANGI O’ZBEKISTON TARAQQIYOTINING
HUQUQIY MUSTAHKAM POYDEVORI**

Avazov Jamshid Ahad o’g’li

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti

Nazarov Elbek Shermaxmatovich

Termiz davlat universiteti Yuriduk fakulteti Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi
kafedrasи o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi tahrirdagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyat rivojida, bozor iqtisodiyoti ravnaqida, davlatchiligimiz tarixida, xalqimiz bunyodkorligida, insonlar hayotida hamda erkin va farovon turmush tarzida shuningdek, o’qituvchi huquqlarini, erkinliklarini, uning sha’ni va ishchanlik obro’sini aks ettirishda tutgan o’rni va roli haqida bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Inson qadri, inson manfaatlari, so’z erkinligi, o’qituvchining huquqlari, burchi, erkinlari hamda ularga yaratilgan sharoitlar, oila, mulk daxlsizligi, demokratik islohatlar.

**КОНСТИТУЦИЯ – ПРОЧНАЯ ПРАВОВАЯ ОСНОВА РАЗВИТИЯ
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

Аннотация: В данной статье рассматривается новая редакция Конституции Республики Узбекистан в развитии общества, развитии рыночной экономики, истории нашей государственности, творчестве нашего народа, жизни людей и свободной и свободной описывается благополучный образ жизни, а также права и свободы педагога, его честь и профессиональная репутация, место и роль в рефлексии.

Ключевые слова: Человеческое достоинство, интересы человека, свобода слова, права педагога, обязанности, свободы и созданные для них условия, семья, имущественная неприкосновенность, демократические реформы.

**THE CONSTITUTION IS A STRONG LEGAL FOUNDATION OF THE
DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN**

Abstract: In this article, the new version of the Constitution of the Republic of Uzbekistan in the development of society, the development of the market economy, the history of our statehood, the creativity of our people, the life of people

and a free and prosperous lifestyle, as well as the rights and freedoms of the teacher, his honor and professional reputation the place and role in reflection is described.

Key words: Human dignity, human interests, freedom of speech, teacher's rights, duties, freedoms and the conditions created for them, family, property inviolability, democratic reforms.

Tarixiy bir davrda ulg'aymoqdamiz va yashayapmiz, hayot ham, xalqimizning dunyoqarashi ham o'zgarmoqda. Islohot va yangilanishlar nafaqat hayotimizda balki xalqimiz ong-u tafakkurida o'z aksini topmoqda.

Bundan 32 yil muqaddam aniqrog'i, 1992-yil qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqimiz xohish irodasining ro'yobi sifatida xizmat qilib keldi. 2016-yilda mamlakat rahbariyatida yuz bergen o'zgarishlar O'zbekiston davlatchiligidagi, xalqimiz hayotida butunlay yangi davrni boshlab berdi. Bu yangi O'zbekiston g'oyasida ham o'z ifodasini topdi.

Vatanni ulug'lash, millatni yuksaltirish, xalqimizni rozi qilish, jamiyatni tub yondashuvlar orqali butunlay isloh qilish nafaqat O'zbekistonning ichki siyosatida, balki tashqi siyosatida ham salmoqli ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday islohotlar yo davlat tizimini isloh qilish yoki xalq hayotini yangilash yoxud bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Lekin O'zbekistonda yuz bergen islohatlar ichida insonlar turganligi butun dunyo uchun yangilik bo'ldi deb baralla aytishga asoslar bor. Keyingi sakkiz yilda xalqimiz dunyoqarashi shunchalik o'zgardiki, xalq Konstitutsiyaviy islohotlarga katta ehtiyoj sezsa boshladidi. Inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlari yangi qabul qilingan Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topib, mamlakatimizdagi barcha fuqarolar faxr-iftixoriga sazovor bo'ldi. Bizning naznimizda yangi qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasi aynan inson qadrini ulug'lashga qaratilganligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiyamizda inson uchun muhim bo'lgan barcha huquqlar aniq mujassamlashib, o'zining yangi ifodasini topgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish masalalarida bergen takliflarida "Biz ishlashga – ishi, yashashga – uyi bo'lgan, fuqarolari tinch va erkin hayotdan mamnun, dasturxoni to'kin, oilasi baxtiyor va farovon yashaydigan davlat qurishni maqsad qilganmiz. Biz ana shunday buyuk ishlar arafasida turibmiz. Kuchli iqtisodiyot barpo etib, dunyoda munosib o'rnimizni egallashimiz, xalqimizga yuksak sharoitlar yaratish uchun ham juda ko'p ishlarni birgalikda amalga oshirishimiz kerak.

Betakror yurtimizda barqaror jamiyatni va bardavom taraqqiyotni ta'minlash – barchamizning bosh maqsadimizdir! Men butun xalqimizni ana shu buyuk maqsadga erishishda o'zaro birdamlikka va hamjihatlikka chaqiraman.”¹ – degan so'zlari har bir shaxs ong-u tafakkurida vatanga bo'lgan muhabbat hissini uyg'otib, huquqiy davlat va demokratik jamiyat barpo etishda, inson qadrini ulug'lashda, mehnatsevar xalqimizning har biz a'zosini komil inson bo'lib tarbiyalashda o'zining salmoqli hissasini qo'shdi desam mubolag'a bo'lmaydi.

Inson qadri bo'yicha O'zbekiston tanlagan yo'l, to'plangan tajribalar, keyingi yillarda erishilgan yutuqlar nafaqat xalqimiz tomonidan, balki jahon hamjamiyati tomonidan ham e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. Yangi Konstitutsiyamizning asosiy va ustivor yo'naliishlari inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlariga qaratilgani ham bejiz emas. Bugungi xalqlarning turmush darajasi, huquqlari, aqliy dunyoqarashi, tafakkur olami yildan yilga o'zgarib demokratik xarakter kasb etmoqda. Inson tafakkuri, insonning hayotdan rozilik darajasi, uning haq-huquqlari so'zsiz ta'minlanishi bu har qanday davlat qudratidan muhimroqdir. Odamlar birinchi marta o'z hayoti, yashash sharoiti davlat uchun muhimligiga ishonch hosil qilmoqda. Tarixda birinchi marta oila, oldidagi davlatning ma'suliyati, kerak bo'lsa burchi hamda vazifalari tan olindi. Mamlakatimizda oylik-maosh, ijtimoiy himoya, bandlik va boshqa inson huquqlarini ta'minlash sohasida ulkan natijalarga erishilmoqda. Bolalar manfaatlarini ta'minlash va ularning to'laqonli rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishni davlat o'z zimmasiga olmoqda. Nogironli bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash borasida ham tinimsiz ishlar izchil davom etmoqda.

“Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyat sari” shiori ham hayotda o'z o'rmini topmoqda. Mahalla institutini shakllantirish, uning vakolatlarini kengaytirish, o'z o'zini boshqarish organlari faoliyatiga chetdan aralashuvni bartaraf etish uchun ilk qadamlar qo'yildi. Mahalla tuzilmasi vakolatlarining kengayishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mahalliy ahamiyatga bog'liq masalalarni mustaqil hal etish uchun davlat organlari ularga ko'maklashmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning **52-moddasida** O'qituvchilar alohida e'tirof etilib, ularning huquqlari va erkinliklari qonuniy mustahkamlab qo'yildi. Davlatning asosiy qonuni hisoblangan Konstitutsiyamizda o'qituvchilar haqida moddaning qo'shilganligi katta hodisa bo'lib, demokratik davlat qurishimizning asosiy poydevori bo'ldi.

¹ Shavkat Mirziyoyevning yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinishi oldidan Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqidan. 20.06.2022.

Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta’lim sohasini isloh qilishga, uni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Yurtboshimizning “Yangi O’zbekiston mактабдан boshlanadi” degan so’zlari uzoqni ko’zlaganidan dalolat beradi. Shu tarzda, o’qituvchilar huquq sohasi vakili bo’lмаган, ammo bosh qomusimizda tilga олинганиги, ularни Konstitutsiyamizda huquqlari bayon etilgan yagona kasb egalariga aylantirdi. Bu paytgacha kasb egalari sifatida huquq sohasi vakillari hisoblangan sudyalar, prokurorlarning vakolatlari, huquqlari va majburiyatlar aks ettirilgan edi. Bu kasblar doirasiga o’qituvchilarning qo’shilganligi ustozga bo’лган hurmat va ehtiromni yuksak darajaga ko’taribgina qolmasdan, ularga erkin va mustaqil faoliyat yuritishida bir qator huquqlar va imtiyozlar beradi. O’qituvchilar va murabbiylar haqida gapirar ekanmiz Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Dunyo binolari ichida eng buyugi maktab bo’lsa, kasblarning orasida eng sharaflisi o’qituvchi va murabbiylikdir.” – degan taqsinga sazovor so’zlari bugungi kunga kelib Yangi O’zbekiston rivojida o’z aksini topmoqda. So’nggi yillarda mamlaktimiz ta’lim tizimida bir qator o’zgarishlar ro’y bermoqda. Jumladan, pedagoglarga o’z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, qonunchiligmizda belgilangan ravishda ijodiy ta’tillar berish, ularni tayyorlash, malakasini oshirish, malaka toifalarini olish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O’qituvchilarning oylik ish haqi maoshi oshirilmoqda, kimyo, axborot texnologiya, biologiya, matematika, fizika, chet tili bo’yicha xalqaro va milliy sertifikatlarga ega bo’лган o’qituvchilarga ustama, uzoq va chekka hududlarda ish olib boruvchi pedagog xodimlarga alohida to’lov joriy etilgan.

O’qituvchini kasb egasi misolida chet el davlatlari bilan solishtirmoqchi bo’lsak, misol uchun Yaponiyada o’qituvchi – eng nufuzli va hurmatli kasb egasi hisoblanadi. Yaponiya metrolarida o’qituvchilar uchun maxsus bo’sh joy o’rinlari mavjud hamda ular boshqa transport vositalaridan foydalanmoqchi bo’lsalar chipta olish navbatsiz amalga oshiriladi. Ular uchun alohida do’konlar ochilgan bo’lib, tadbirkorlar o’z do’konida o’qituvchini ko’rib qolsa, ularga izzat-hurmat ko’rsatadilar, ular bundan xursand bo’lib, buni o’zlari uchun sharaf deb biladilar.

Mamlakatimizda 1-oktabr “O’qituvchilar va murabbiylar kuni” milliy bayramlarimizdan biri sifatida keng ravishda nishonlanadi. Shu kuni o’qituvchilarga hurmat va ehtirom yuzasidan yurtimiz bo’ylab dam olish kuni deb belgilangan. Aynan ushbu kunda o’qituvchilarga nisbatan izzat-ikrom ko’rsatilib, ko’proq e’tibor qaratiladi. Ajablanarlisi shundaki, dunyodagi eng rivojlangan, taraqqiy topgan, ilm-fan mislsiz darajada ravnaq topgan Yaponiyada ustozlar bayrami yo’q. Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, yaponiya o’qituvchilariga bir kunni bayram

qilishning nima zarurati bor, qachonki ularning har bir kuni bayram bo'lsa! Yaponiyada o'qituvchilik kasbiga yetishish uchun litsenziyaga ega bo'lish lozim, ko'chada, jamoat transportlarida o'qituvchi ekanligingizni aytsangiz yoxud sizni o'qituvchi ekanligingizdan xabar topishsa sizga havas bilan boqishib, ehtirom ko'rsatishadi. Litsenziyaning amal qilish muddati 10 yil bo'lib, muddat tagagach, talabgor qayta imtihon topshirib litsenziya olish huquqiga ega. Ushbu tizim ta'lim sifatini oshirishga, o'z ishchanlik o'brosini va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yaponiyada har bir ota-oná farzandini kelajakda yetuk inson bo'lib voyaga yetishini xohlaydi. Shuning uchun farzand ta'lim-tarbiyasini o'qituvchiga ishonib topshiradi. O'qituvchilar esa bu ishonchni allaqachon oqlashgan. Yapon xalqi ishonadiki mamlakat taqdiri yosh avlodni voyaga yetkazib, tarbiya va bilim berayotgan o'qituvchilar qo'lida.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar, o'qituvchilar va murabbiylarning obro'-e'tiborini keng qamrovda oshirib, kelajak avlodning bizdan ko'ra bilimli, kuchli, dona va albatta baxtli bo'lishlari uchun kamarbasta bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa ularning nufuzi demokratik ruhdagi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o'z aksini topishi mamlakatimizda sifatli ta'limga, yangicha o'qitish tizimiga, ulug'vor va sharafli kasb hisoblanmish o'qituvchi kasbiga yana bir beqiyos urg'u bo'ldi desam mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi paytda jamiyat taraqqiyoti, milliy farovonlik, yoshlarning ilm-u salohiyati, ta'lim-tarbiyasi ularning yetuk, barkamol hamda malakali kadr bo'lib yetishishi mamlakatimizda chuqur hamda uzoqli ko'zlab olib borilayotgan yoshlarni siyosatining yorqin namunasidir. Yurtimizda metin va mustahkam irodali, o'z mustaqil fikr yuritish tafakkuriga ega, yuksak ma'naviyatli hamda malakali bilim va ko'nikmalarga ega yoshlarni tarbiyalash, ularni kelajakda komil inson qilib voyaga yetkazish o'qituvchi va murabbiylarning asosiy vazifasidir. Shunday ekan, mustaqil, ozod va obod, hur Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qiladigan, yurtimiz shon-shuhratiga betakror hissa qo'shadigan, barkamol avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek sharafli vazifalarni o'zlarining umr mazmuni deb biladigan fidoyi va jonkuyar o'qituvchilar va marabbiylarga doimo ta'zimdamiz va hurmat bajo keltiramiz.

Yurboshimiz Sh. Mirziyoyevning ta'kidlashicha 2025-yilga kelib oliy toifali o'qituvchilarning oylik maoshi 1000 dollarga yetkaziladi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisida aytib o'tgan. O'z nutqlari davomida "Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va

yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyyolilar kerak.

Ochiq aytish lozim, biz bu zahmatkash, fidoyi insonlar oldida hali qarzdormiz. Shu boisdan ham, qanchalik qiyin bo‘lmasin, o‘qituvchilar mehnatini munosib rag‘batlantirish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz. 2025-yilga borib, oliy toifali o‘qituvchilarning oylik maoshini ekvivalent hisobida 1 ming dollarga yetkazish choralar ko‘riladi.

Bu borada, avvalo, bog‘cha tizimini maktab ta’limi bilan uyg‘unlashtirish orqali bolalarimizni maktabga tayyorlash sifatini yanada yaxshilaymiz”², – dedi Mamlakatimiz Rahbari.

Birinchi Prezidentimizning “...har qanday davlatning Konstitutsiyasi unda yashovchi xalqning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi”³ – degan so‘zları ko‘rsatib turibdiki, Konstitutsiyamizda o‘zbek xalqining o‘ziga xos jihatlari va qadriyatları aks ettirilishi tabiiydir. Xususan, Konstitutsiyamizda oila munosabatlarining qaror topganligi milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashning yorqin namunasidir. Boshqa davlat Konstitutsiyalaridan farqli ravishda, Bosh qomusimizning XIV bobi “Oila, bolalar, yoshlar” deb nomlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, oila jamiyatning asosiy bo‘g’inlaridan biri hisoblanib, u davlat va jamiyat muhofazasidadir.

Shubhasiz, O‘zbekiston yangi Konstitutsiyasi Prezidentimiz aytganidek haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo‘lishiga ishonamiz. O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekanini belgilash bo‘yicha Prezidentimiz ilgari surgan tashabbus fuqarolar oldida davlatning ma’suliyatini kuchaytirish, insoniyatlar tengligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Har bir insonni mehnatga va munosib hayot sharoitlariga, ishsizlikdan himoyalanishga bo‘lgan huquqlarning ishonchli himoyasini ta’minlash, kambag’allikni qisqartirish konstitutsiyaviy islohotlarning muhim maqsadi hisoblanadi.

Ma'lumki, inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar har bir mahallaga yetib borishi uchun boshqaruv tizimi takomillashtirildi. Har bir mahallada hokim yordamchilari lavozimi joriy etilib, ularga aniq vazifalar belgilab berildi. Insonning mehnatiga va munosib hayot sharoitlariga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash davlatning muhim vazifasi sifatida belgilab qo‘yildi. Prezidentimiz tomonidan

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining qo‘shma majlisidagi so‘zlagan nutqidan. 06.11.2021.

³ Karimov I.A. O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: “O‘zbekiston”, 1992-yil. 36-bet

qadriyatlarimizga berilgan e'tibor va shu ruhdagi tarbiyaning ahamiyatiga konstitutsiyaviy tus berilishi ham aholimizning ayni damdagi fikrlaridir.

Qisqa xulosa

Xulosa qilib aytganda, 2023-yil 1-maydan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz mustaqil davlatchiligidan qabul qilingan eng demokratik Konstitutsiya bo'ldi. Unda yashash, erkin kasb tanlash, mulkdor bo'lism, bilim olish, ijtimoiy ta'minot olish kabi demokratik huquqlar o'z aksini topib, yanada liberallashtirildi. Davlat va shaxs o'rtaqidagi aloqalarda shaxs manfaati ustuvorligi, shaxsning yashash huquqi asosiy, uzbek huquq sifatida mustahkamlab qo'yildi. Konstitutsiya asosida fikrlar xilma-xilligi, demokratizim, ko'ppartiyaviylik yanada ravnaq topdi. Yangi qo'shilgan norma sifatida advokatlar, o'qituvchilar huquqlari va erkinliklari kafolatlandi. Zero, Vatanimizning barqaror ravnaq topishini ta'minlash sifatlari ta'lim tizimini isloh qilish bilan bevosita bog'liq. Buning uchun jamiyatda o'qituvchi va murabbiylarning qadrini, ularning nufuzini har tomonlama yuksaltirish hozirgi davr talablaridan biridir. Chunki ustozlarga e'tibor – kelajak avlodga e'tibor demakdir. Istiqbolli va yorqin kelajak uchun o'qituvchilarni farovon turmush tarziga yetaklash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ularning ish va hayot muvozanatini ijobiy yo'lga qo'yish zarur. O'qituvchilar kelajagimiz me'morlari bo'lib, yetuk va barkamol yosh-avlodni shakllantirish uchun bel bog'lab mehnat qilishadi. O'qituvchilarning fidoyiliklari, o'z ishiga, vazifasiga bo'lgan sitqidildan yondashuvlari yuksak hurmatga sazavordir. Ularning bergan o'gitlari, bilim va tarbiyasi, hayotiy saboqlari mamlakat rivoji uchun tom ma'noda beqiyos ahamiyatga ega. Murabbiylar va o'qituvchilar o'zlarining fidokorona mehnatlari, say-harakatlari evaziga adolatli dunyo kelajagini barpo etadilar. Demak, ustozlar bor ekan o'z kelajagiga befarq bo'limgan, ma'suliyatli hamda kelajagi porloq barkamol avlod shakllanadi.

Barcha noaniqliklar inson foydasiga hal qilinishi kabi demokratik normalarning yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga qo'shilishi uning xalqimizga uzoq vaqt samarali xizmat qilishiga va amalda bo'lismiga zamin yaratadi. O'z o'zini boshqarish organlari mavqeい fuqarolik jamiyatni asosi sifatida konstitutsiyaviy darajada belgilandi. Bundan tashqari, Bosh qomusimiz muqaddimasida Konstitutsiya qabul qilinishida o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanganlik hamda ijtimoiy adolatga sadoqatlik namoyon qilinishi bayon etilgan. Qisqa qilib aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada shaxsga, uning huquq va erkinliklariga keng urg'u berilib, shaxs qadr-qimmati, sha'ni, ishchanlik obro'si oliy qadriyat sifatida belgilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 2023. 32-bet.
2. Husanov O.T Konstitutsiyaviy huquq: darslik.— T.: “Toshkent”. 2022. 5-43-46-betlar.
3. Shavkat Mirziyoyevning yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinishi oldidan Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqidan. 20.06.2022.
4. Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T.: “O'zbekiston”, 1992-yil. 36-bet
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-J. – T.: “O'zbekiston”, 1997. – 107-bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi so'zlagan nutqidan. 06.11.2021.
7. <http://nhrc.uz>
8. <https://www.hikmatlar.uz>
9. <https://m.aniq.uz>
10. <https://president.uz>
11. <https://qalampir.uz>